YEROSTI SUVIDAN FOYDALANUVCHILARDA PARODONT KASALLIKLARINING KLINIK-EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sankulov Jamshed Obloberdiyevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Diplomdan keyingi ta'lim fakulteti, Stomatologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,

sanakulovjamshed@gmail.com

Dolzarbligi.

Surunkali generalizatsiyalashgan parodontit tishlarni ushlab turuvchi to‘qimalarning yallig‘lanish va destruktiv o‘zgarishlari bilan kechuvchi kasallik bo‘lib, uning rivojlanishi ko‘plab xavf omillari bilan bog‘liq. Ichimlik suvi manbasi va uning sifati aholining umumiy hamda stomatologik salomatligiga ta'sir qiluvchi ekologik omillar sirasiga kiradi. Yerosti suvlaridan foydalanish sharoitida parodont kasalliklarining klinik-epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish kasallikning xavf omillarini aniqlash va samarali profilaktik algoritmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi.

Yerosti suvidan foydalanuvchilarda parodont kasalliklarining klinik-epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish, parodont to‘qimalarining destruktiv o‘zgarishlarini baholash va profilaktik yondashuvlarni ilmiy asoslash.

Materiallar va usullar.

Tadqiqot Samarkand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan dissertatsiya ishi materiallariga asoslangan. Tadqiqotga 130 nafar bemor va toza ichimlik suvi bilan barqaror ta'minlangan 45 nafar surunkali generalizatsiyalashgan parodontitli bemor kiritilgan. Bemorlarning stomatologik holati klinik tekshiruv, parodontologik ko‘rsatkichlar, gigiyenik indekslar, radiologik tekshiruv, mikrobiologik va laborator tahlillar orqali baholangan. Olingan ma'lumotlar statistik va epidemiologik usullar yordamida tahlil qilingan.

Natijalar

. Tadqiqot natijalari yerosti suvidan foydalanish sharoitida parodont to‘qimalari holatida sezilarli klinik-epidemiologik farqlar mavjudligini ko‘rsatgan. Nokarioz tish kasalliklarining 2,2 baravar ko‘p uchrashi hamda parodont to‘qimalarining radiologik destruksiyasi bo‘yicha 23,6–37,8 baravar yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Yerosti suvi iste’molining alveolyar suyak destruksiyasidagi etiologik ulushi 95,8–97,4% darajasida hisoblangan. Tadqiqot natijalari asosida parodont kasalliklarining klinik-epidemiologik xususiyatlarini hisobga oluvchi profilaktik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligi asoslangan.

Xulosa.

Yerosti suvidan foydalanuvchilarda parodont kasalliklarini klinik-epidemiologik jihatdan baholash kasallikning xavf omillarini aniqlash va profilaktik tadbirlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Stomatologik profilaktika, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasini nazorat qilish, ekologik omillarni hisobga olish va bemorlarni dinamik kuzatish parodont salomatligini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar:

klinik-epidemiologik xususiyatlar, yerosti suvi, parodontit, surunkali generalizatsiyalashgan parodontit, stomatologik indekslar, xavf omillari, profilaktika.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Petersen P.E., Ogawa H. The global burden of periodontal disease: towards integration with chronic disease prevention and control. Periodontology 2000. 2012;60(1):15–39.

2. Nazir M.A. Prevalence of periodontal disease, its association with systemic diseases and prevention. International Journal of Health Sciences. 2017;11(2):72–80.

3. World Health Organization. Guidelines for Drinking-water Quality. 4th ed. Geneva: WHO; 2022.

4. World Health Organization. Chemical fact sheets: Fluoride. Geneva: WHO; 2022.

5. Sanakulov J.O. Клинико-эпидемиологические особенности заболеваний пародонта, связанных с употреблением подземных вод. Диссертационная работа. Самарканд: Самаркандский государственный медицинский университет; 2025.